

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

*Murodullayeva Aziza Erkin qizi*

*Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishning turli xil yo'llari, metodlari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi yangicha ijodkorona qarashlar to'g'risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, tafakkur, ijod, ijodkorlik, qobiliyat, pedagogika, ilmiylik, yangi usul, vositalar.

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilinayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarini tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifa edi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalarning rivoj-lanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasi-ning Davlat o'quv dasturi qabul qilindi. Endilikda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo'ygan holda faollik markazlarida o'yin mashg'ulotlari orqali yangi ma'lumotlarni o'rgatmoqda.

Ijodkorlik manbai – pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz tarbiyachining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, bolalarning ta'lim-tarbiyasining yangi, samarali yo'l va vositalarini qidirib topishni tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajriba tarbiyachi tomonidan qo'llanadigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarni eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg'or pedagogik tajribani urganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli uzgarishlar kiritadi, bolalarning bilim faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdaki o'quv jarayonini modelllashtirish muammolarini echishka sabab buladi. Ijodiy ishlaydigan tarbiyachigina faqatgina bolalarni muvaffakiyatli ijodiy tasavvurini shakllantirish va tarbiyalash, ilg'or tarbiyachilar tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko'nikma malakalarika ham ega bo'ladi.



Xozirki zamon fan va texnika tarakkiyot tarbiyachinink ijodkor bulishini, fannink muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuklarini bolalarka etkaza olishi va nixoya.

Bu axlokiy e'tikod tarbiyachinin' mashg'ulot berish jaraynida, tarbiyaviy ishlarda, bolalar va boshka kishilar bilan munosabatlarida, muomalasida, kundalik turmushda uzinink shaxsiy namunasi bilan axlokiy taosir utkazilishida kuzka tashlanadi.

Pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy axlok katekoriyalarika mos keladi va ularni tarbiyachi faoliyati bilan bolik tarzda bir kadar aniqlaydi. Pedagogik etikada kumanizm, adolatlik, vijdonlilik, xalollik, yaxshilik kilish kabilar tarbiyachilik faoliyati bilan boglik ravishda taxlil kilinadi.

Axlok nazariyasida yaxshilik enk muhim katekoriya xisoblanadi. Yaxshilik-axlokiy ijobiy fazilat bulib, normativ etikanink idealini, individual axlokda ijobiy-xulqiy fazilatlarni mazmunini inson faoliyati yoki biror xatti-xarakatika ijobiy munosabatinink yiindisini aks ettiradi.

Tarbiyaviy jarayon xam ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni taxlil kilish maxoratida xam, bolalar bilan bevosita uzaro xamkorlik kilishda xam namoyon buladi. Tarbiyachi ijodkorlikning uzika xosliki shundan iboratki, u ijodiy fikrni uz shaxsi orkali amalka oshiradi.

Boshkacha kilib aytkandi, ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik kuroli vositasi bir-birika mos keladi, bunda bolaning uz-uzini namoyon kilish juda katta rol uynaydi. Bu jixatdan bolaning faoliyati bir kadar xususiyatlari buyicha aktyor rejissornink badiiy ijodiy faoliyatika yakindir.

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik», “ijodiy tafakkur” kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo’lganligi bejiz emas. «**Ijod**» so’zining lug’aviy ma’nosi: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so’zlariga monand keladi. **Ijodkorlik** - faoliyatning turli holatlarida paydo bo’ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliv tarzda paydo bo’lishidan, namoyon bo’lishigacha jarayonini o’z ichiga oladi. SHaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo’yilmagan, hal etuvchi vosita bo’lib hisoblanmagan intilishdir.

Ijodiy faoliyat sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin :

- ehtirosli-obrazli sifatlar: ijodiy vaziyatlardan ilhomlanish, zavqlanish, jo’shqinlik;
- obrazlilik, uyushganlik, yangilik va g’ayrioddiylikni his etish, ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik, ijodiy moyillik, ichki kurashlarni sinashga bo’lgan qobiliyat, ramziy ijodkorlik va boshqalar.
- tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, zehn, o’ziga xoslik, har xillik, nostandardlik;
- g’oyalarni topishga, ularning individual, o’zga insonlar bilish ob’ektlari bilan munosabatlariga nisbatan qobiliyati;



- MTMdA, oilada va boshqa ijtimoiy muhitda beriladigan axloq me'yorlarini saqlab qolish ko'nikmasi bilan uyg'unlashadigan fikrlar, tuyg'ular va harakatlar erkinligi;
- sezgirlik, tanish narsalarni notanish narsalarda ko'ra olish va aksincha; muammolarni hal etishda stereotiplarni yenga olish, o'zgacha makonga chiqish qobiliyatini;
- o'rganilayotgan ob'ekt bilan dialog olib bora olish ; bilish metodlarini tanlay olish; ob'ektning o'xshash ob'ektlar bilan vazifa va aloqasini topish;
- ob'ektlarning o'zgarishi, uning o'sish yoki rivojlanish dinamikasini aniqlash;
- ob'ektning xossalariiga ko'ra bilishning yangi metodlarini yarata olish ;
- gipotezalarni ta'riflay olish taxminiy fikrlar, qonuniyatlar, formula, nazariyalarni, konstruksiyalash: intuitsiya, meditatsiyaga ega bo'lism;
- o'z qobiliyatini ijodiy ishlarni bajarish va himoyalash shaklida amalga oshirish, tanlovlardan, olimpiadalarda ishtirok etish tajribasiga ega bo'lism.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mакtabgacha ta'lim jarayonida bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo'naliшlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Bola shaxsini yaxlit o'rganish va uning faoliyati mazmunini majmuaviy baholash tizimiga muvofiq kichik bolalar guruhlarida amalga oshirilgan test natijalari, sinf (guruh) rahbari tomonidan muayyan bolaga berilgan taqdimnomalar mazmuni, shuningdek, bolaning nomzodlar davrasidagi mavqeい (faolligi, mantiqiy fikrlash layoqati, nutq boyligiga egaligi, u yoki bu faoliyatni bajarishdagi harakatlarning aniqligi, to'g'riliги va boshqa xislatlar) asosida bola qobiliyati darjasini baholanadi.

Kino va teatr san'ati o'zining eng ta'sirchan vositaligi bilan ajralib turadi. Chunki bir qo'shiq, kuy 3-5 minut ijro etilib ta'sir etsa, kino 15 (multfilm) minutdan 1, 5 soatgacha bolaning diqqatini muayyan darajada «ushlab» turadi. Shu bois ham oilada bolalarni ko'radigan kino mahsulotlarini qat'iy tarzda nazorat qilish lozim. Chunki, buning negizida bir shaxsning butun hayoti axloqiy me'yorlarini belgilab beruvchi omillar yotadi.

Shu o'rinda mazkur ishning birinchi bobida to'xtalgan ayrim jihatlar, xususan, badiiy-estetik saviyasi past, syujetning asosiy mazmun va mohiyatiga ko'ra sharqona axloq-odob me'yorlariga zid teleko'rsatuvlarni (ayniqsa Lotin Amerika mamlakatlarining teleserailarini) ko'rish nafaqat estetik tasavvurlarni, balki umuman dunyoqarashni noto'g'ri shakllanishi, havoyi, udumlarimiz, turmush tarzimizga yot bo'lgan o'y-fikrlarni shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayni paytda teatr san'atiga oid asarlar haqida ma'lumot berish (ba'zan ularni ko'rish) ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Masalan, estetik tasavvuri shakllantirilayotgan mакtabgacha yoshidagi bolalarning «Chimildiq», «Kelin o'yini» (O'zbekiston Milliy teatri spektakli) kabi spektaklni ko'rishlari pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq emas .



Badiiy adabiyot - bolalarni estetik turkumdag'i mazkur faoliyat turi bilan shug'ullanishlarini shartli ravishda badiiy adabiyot deb atash mumkin. Aslida uning elementlari deyish to'g'ri bo'ladi. Chunki maktab yoshdagi bolalar roman, qissa yoki doston o'qimaydi. Ular ayrim xalq ertaklarining syujetlari bilan tanish bo'ladilar. She'rlardan parchalar yod oladilar, ba'zi monologik parchalar, topishmoqlarni biladilar. Muhimi, bu yoshdagi bolalarda ishonuvchanlik, tasavvurni yaxshi rivojlanganligi uchun estetik tarbiyaning mazkur yo'nalihi ham muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazarda ota-onalar o'z farzandlarining «bisotlari»dagilarni ular bilan uzviy tarzda o'zlashtirib boradilar. O'quvchilarda axloqiy-estetik sifatlarni tarkib topib borishiga o'zlarining bilim va saviyalarini safarbar etib borishlari lozim. Badiiy adabiyotning nafaqat estetik tasavvurlarni, balki keng qamrovli dunyoqarashni, umuman, badiiy-intellektual tafakkurni tarkib toptirish va rivojlantirishdagi ahamiyati beqiyosdir.

Tasviriy faoliyat - bolalarning ilk yoshlarida estetik mazmundagi, umuman ularning ongli xatti-harakatlaridagi eng salmoqli tamoyil-tarmoqdir. Bolada hali gapirish ko'nikmasi shakllanmay turib turli chiziq, shakllar chiza boshlaydi. Muayyan tasviriy malaka tarkib topgandan so'ng esa elementar shakl va mazmundagi tasviriy faoliyat namunalarini yaratib, shu olamda yashaydilar. Bu ularni o'ziga xos fikrlashga undashi bilan muhim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Muhimi ushbu jarayon bola faoliyatida stixiyali tarzda kechmasligi kerak, ya'ni bola yaratayotgan «obrazlar»ini to'g'ri talqin qilishni asta-sekin o'r ganib borishi lozim. Ota-oni bu jarayonda chiziq va shakl, shakl va mazmun, rang va mazmun kabi estetik mazmun haqidagi tasavvurlarni bola ongiga singdirib borishi hamda bu jarayonni pedagogik jihatdan boshqarishi lozim.

Yuqorida nomlari qayd qilib o'tilgan olimlarning ta'kidlashicha, san'at bilan muloqotda bo'lish insonlarda nafaqat badiiy-estetik didni tarbiyalaydi, shu bilan birga kishilardagi, tabiat va san'atdagi go'zallikni to'g'ri anglab etish, uni ijobiy baholash va shaxsiy munosabat bildirishdan boshlab jamiyat hayotidagi turli voqealarni aynan talqin qilishni tarbiyalaydi, ya'ni aksiologik harakter kasb etadi. Shu boisdan bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish faqat badiiy-estetik ta'lim-tarbiya deb chegaralanmaslik lozim.

Insonning tabiat shunday tuzilganki, u har doim nimanidir o'z istak xoxishi to'laligicha bajara olmaydi. Bu xususiyat yosh farzandlarimizga ham xos xususiyat hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni san'atning turli soxalariga jalb etish,

San'atning funktsiyalari haqidagi nazariy ma'lumotlar har qanday yo'nalihsiz va mazmundagi tarbiyaviy, xususan badiiy-estetik ta'lim ishlarining negizini tashkil etadi. Zero, muayyan-ilmiy nazariy asosga ega bo'lмаган har qanday amaliy faoliyatning pirovard ijobiy natijasi kafolatlanmaydi. Shu ma'noda respublikamizdag'i ayrim oilalarda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarini shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Bolajon" takomillashtirish dasturi Toshkent 2016 yil
2. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent.2017 yil.
3. Nurmatova M.SH. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
4. Azizova. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qO'G'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Toshkent – 2010

